



XALQ DEPUTATLARI QASHQADARYO VILOYATI KENGASHINING Q A R O R I

2024-yil 30-may

VI-74-67-4-0-K/24

Qashqadaryo viloyati

Qashqadaryo viloyati “Issiqlik manbai” davlat unitar korxonasining issiqlik energiyasi narxlari (tariflari)ni tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 886-sonli Qonunining 13-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 15-sentabrda “Yoqilg‘i-energetika resurslarining 2023-yil 1-oktabrdan kuchga kirgan yangi narxlari” to‘g‘risidagi 475-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 17-yanvardagi 03/1-3480-sonli topshirig‘iga asosan hamda viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 26-yanvardagi 01-20-10/05-38/206-sonli, 2024-yil 14-martdagi 01-20-10/05-38/657-sonli, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi viloyat hududiy boshqarmasining 2024-yil 8-aprelda 01/02-1198-sonli, viloyat “Issiqlik manbai” davlat unitar korxonasining 2024-yil 19-martdagi 51-sonli xatlarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. Qashqadaryo viloyati “Issiqlik manbai” davlat unitar korxonasining issiqlik energiyasi narxlari (tariflari) yuzasidan taqdimoti ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. Qashqadaryo viloyatida issiqlik energiyasi xizmatlari uchun Qashqadaryo viloyati “Issiqlik manbai” davlat unitar korxonasi tomonidan taklif etilayotgan (QQS siz)narxlar (tariflar) ilovaga muvofiq ma’qullansin..
3. Ushbu qaror “Qashqadaryo” gazetasida e’lon qilinsin hamda viloyat hokimligining qashqadaryo.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.
4. Tasdiqlangan tariflar ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingandan keyin o‘n besh kun o‘tgach kuchga kirishi belgilansin.
5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal xo‘jaligi masalalari va aholiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi I.Xalilov hamda viloyat hokimining o‘rinbosari M.Azizov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



AZIMOV MUROTJON
BERDIALIYEVICH

Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining
2024-yil 30-maydagi
VI-74-67-4-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

**Qashqadaryo viloyati “Issiqlik manbai” DUK tomonidan taklif etilgan issiqlik energiyasi xizmati uchun (QQSsiz) narxlar
JADVALI**

T/r	Korxona nomi	O'lchov birligi	Amalda qo'llanilayotgan tarif				Yangi tarif darajasi			
			Aholi uchun markaziy isitish (1m ² uchun 1 oyga)	Aholi uchun issiq suv ta'minoti (1 kishi uchun 1 oyga)	Aholi uchun ta rif (1 Gkal uchun)	Yagona ulgurji tarif (1 Gkal uchun)	Aholi uchun markaziy isitish (1m ² uchun 1 oyga)	Aholi uchun issiq suv ta'minoti (1 kishi uchun 1 oyga)	Aholi uchun tarif (1 Gkal uchun)	Yagona ulgurji tarif (1 Gkal uchun)
1	Viloyat “Issiqlik manbai” DUK	So‘m	1 047	13 178	60 500	90 850	1 204	15 155	69 575	132 400